

Published Date:- 17-10-2023

LOTIN TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Daulanova Xolida Iskandarovna,

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: daulanovakholida@gmail.com

Annotatsiya. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini chuqurlashtirilgan holda o‘qitish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada lotin tili darslarida zamonaviy usullarni qo‘llash masalalariga doir qarashlar sifat so‘z turkumini misolida bayon etiladi.

Аннотация. Особое значение имеет вопрос углубленного преподавания латинского языка в медицинских ВУЗах. В данной статье на примере части речи прилагательное изложены взгляды по применению современных методов на занятиях по латинскому языку.

Annotation. Of particular importance is the issue of in-depth teaching of the Latin language in medical universities. This article, using the example of the adjectives part of seech, outlines views on the use of modern methods in Latin classes.

Ключевые слова: медицинское образование, латинский язык, инновационное образование, технология, прилагательное, грамматическая категория, склонение, определение.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta’lim, lotin tili, innovatsion ta’lim, texnologiya, sifat, grammatik kategoriya, turlanish, aniqlovchi.

Key words: medical education, Latin language, innovative education, technology, adjective, grammatical category, declension, determiner.

Published Date:- 17-10-2023

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Tub islohotlar jamiyatimiz va iqtisodiyotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida ham ana shunday jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida innovasiya jarayonlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari - zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizasiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida strategik vazifalar belgilab berildi.

Mazkur vazifalar sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, sohani zamonaviy standartlar darajasida tashkillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra ta’limni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, yangi avlod kadrlarini tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni rivojlantirish, ulardan samarali foydalanish orqali ta’limni raqamli tizimga moslashtirishdir.

Asosiy qism. Tibbiy ta’lim maskanlarida lotin tilini o‘qitishda zamonaviy usullarni qo‘llash masalasini yanada rivojlantirish taqazo etiladi. Shunga ko‘ra, lotin tilini o‘qitilishi dolzarb hisoblanib, quyida mazkur yo‘nalishda chuqur o‘rganishni talab qiladigan sifat so‘z turkumini o‘zlashtirilishi borasida so‘z yuritiladi. Lotin tiliga mansub manbalarda qayd etilgan sifatlar ham umuman turkiy tillardagi, xususan, o‘zbek tilidagi sifatlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, narsa-predmet va hodisalarning belgisini bildirishi uning semantik asosidir.

Shu o‘rinda “Aqliy hujum” texnologiyasini qo‘llash samarali hisoblanadi. Chunki sifat so‘z turkumi talabalarga tanish, o‘zbek, rus va chet tillarni o‘zlashtirish jarayonida o‘rganilgan va ma’lum darajadagi tushunchalarga ega. Bu usul orqali bir

Published Date:- 17-10-2023

zumda auditoriyadagi barcha talabalarni qamrab olish va ularni faol holatga keltirish mumkin. Bunda o‘qituvchi sifat so‘z turkumi bo‘yicha talabalarga umumiy savollar beradi. Talabalar bilganlaricha fikr bildiradilar, boshqalarning aralashuviga, to‘g‘rilashlariga yo‘l qo‘yilmaydi, natijalar baholanmaydi. Ko‘zlangan maqsad, talaba o‘z fikrini bildira olishiga erishishdir. O‘rtaga tashlangan fikrlar o‘qituvchi tomonidan umumlashtirilganidan so‘ng ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi barchaga ma‘lum bo‘ladi. Bunda talabalar ushbu mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilim darajalarini baholay oladilar.

Shundan so‘ng lotin tilidagi sifat so‘z turkumi, uning grammatik kategoriyalari, qo‘shimchalariga ko‘ra 2 guruhga ajratilishi, lug‘at shakllari hamda moslashgan aniqlovchi sifatida kelishi, gaplarda otdan keyin yozilishi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, lotin tilidagi sifatlar boshqa tillaridagi kabi asliy va nisbiy turlarga bo‘linishi, asliy sifatlar predmetning xususiyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya‘ni boshqa predmetlarga aloqador bo‘lmagan holda bildirishi misollar yordamida tushuntiriladi: *uzun suyak – os longum; qisqa muskul - musculus brevis; sariq boylam – ligamentum flavum; ko‘ndalang o‘simta – processus transversus; katta teshik – foramen magnum* kabi.

Nisbiy sifatlar predmetning belgisini bevosita emas, balki boshqa predmet bilan munosabati orqali bildirilishi ham yoritib beriladi: *umurtqaga oid kanal – canalis vertebralis; peshonaga oid suyak – os frontale; bo‘g‘imga oid yuza - facies articularis* va boshqalar. Anatomik nomenklaturadagi sifatlarning asosiy massasi - bu anatomik butun organga yoki boshqa anatomik shakllanishga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi nisbiy sifatlar ekanini o‘rganuvchilar bilishi lozim.

Shuningdek, sifatlarning turlanishiga alohida e‘tibor qaratiladi. 1-guruh sifatlari 1 va 2 turlanish bo‘yicha (*longus, a, um – uzun*) 2-guruh sifatlari esa 3 turlanish bo‘yicha turlanishini hamda ularning lug‘at shaklini aniq ajrata olishlari kerak (*vertebralis,e – umurtqaga oid*).

Published Date:- 17-10-2023

Sifatning gapda moslashgan aniqlovchi bo‘lib kelishi, uning rodi u bilan birga kelayotgan otning rodiga bog‘liq bo‘lishini uqtirish muhim. Masalan, “uzun” sifati uchta rod shakliga ega: longus (m.r.), longa (j.r.), longum (sr.r.). Masalan: *musculus longus* – uzun muskul; *vena longa* – uzun vena; *os longum* – uzun suyak;

Shu tarzda mavzu to‘liq tushuntirilib bo‘lingach “Nima uchun” sxemali texnologiyasi orqali mavzuning muhim jihatlarini mustahkamlab olish mumkin. Bunda “Nima uchun” savoli qo‘yilib, unga har bir talaba tushunganlari asosida o‘z fikrlarini bildirishadi. Bundan ko‘zlangan maqsad, har bir talabaning fikr bildira olishi va oxirida to‘g‘ri xulosaga erishish. Usul muammoning yechimi topilguncha davom etadi. Yakunida javoblar hamkorlikda taqqoslanib, xato fikrlardan tozalanib, umumiy bir fikrga kelinadi.

Yoki mashg‘ulot davomida sifatning moslashgan aniqlovchi vazifasini “Baliq skeleti” texnologiyasi orqali yaxshi o‘zlashtirib olish mumkin.

Grammatik jihatdan to‘g‘ri moslashtirishda ushbu usul juda qo‘l keladi.

Shuningdek, lotin tili darslarida leksik minimumni o‘zlashtirish muhim sanaladi. Shunga ko‘ra, “Kungaboqar” texnologiyasini qo‘llash samara beradi. Bunda talabalar 3-4 tadan iborat guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh bittadan kungaboqar chizib, o‘rtasidagi doiraga topshiriq yoziladi. Masalan, 1-guruh sifatlari, 2-guruh sifatlari yoki sifat darajalarini olish mumkin. Ajratilgan vaqt oralig‘ida (5-10 min.) guruhdagilar birlashib, kungaboqarning barglariga mos sifatlarni topib yozishaveradi. Bunda misollarni ko‘p topish va to‘g‘ri yozish muhimdir. Qatnashchilarning o‘zlari natijalarni baholaydilar.

Xulosa. Lotin tili mashg‘ulotlari davomida interfaol usullardan foydalanish ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar uchun qator qulayliklar yaratadi hamda ta’limning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Yuqorida keltirilgan usullar asosida mashg‘ulotlar tashkil etilsa lotin tilini

Published Date:- 17-10-2023

o‘zlashtirishda muhim bo‘lgan, og‘zaki va yozma ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Издание третье, исправленное и дополненное. – Москва: ШИКО, 2007.

2. Хо‘jaeva L.U. Lotin tili. Tibbiyot o‘quv adabiyoti. -Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

3. Тананушко К.А. Учебник латинского языка. Lingua Latina. –Минск: Харвест, 2007.

4. Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках. Тюркологические исследования. -М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1963.

5. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словарь. –Москва: Русский язык, 1976.